



Nogironlika nisbatan ijtimoiy munosabatni o'zgartirishda ta'limning ro'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali. Psixologiya yo'nalishi 25_06 guruh 1 bosqich talabasi.

Toyirova Tursunoy. Abdulhakim qizi

Fan o'qtuvchisi Xalimjonov Abduqunduz.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironlikka nisbatan ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish jarayonida ta'lim va xabardorlik dasturlarining o'zni xabardorlik dasturlarining o'zni yoritilgan. Ta'lim tizimi insonlarda bag'rikenglik, tenglik va insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish orqali jamiyatda mavjud salbiy stereotiplarni kamaytirishga

xizmat qilishi ta'kidlangan. Maqolada ta'lim va xabardorlik dasturlarni uyg'unlashtirish orqali jamiyatda "Barchaga teng imkoniyat" tamoyilini qaror toptirish mumkinligi xulosaga keltirilgan.

Kalit so'zlar; Nogironlik, ta'lim, inkluziv ta'lim, xabardorlik dasturlari, ijtimoiy munosabatlar.

Prezident tomonidan 13- oktabr 2020- yilda " Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2020- yil 14 - oktabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko'ra 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inkluziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha " Yo'l xaritasi" tuzib chiqiladi. Bu konsepsiya 2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, 1-bosqichda (2020-2022-yillar) inkluziv ta'limni yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratish, bu bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy, normativ bazani yaratish, jihozlash va zarur o'quv qurollari bilan maktablarni ta'minlash nazarda tutilgan.

2- bosqichda (2023-2025-yillar) inkluziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etish, bu bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshirish kabilar.



Inklyuziv ta'lim - bu maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma - xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta'lim olish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich ayrim maktablarda sinov tariqasida yo'lga qo'yiladi va ijobiy natija va tajribalar keyinchalik respublikaning boshqa hududlaridagi maktablarida tadbiq etiladi. Shuningdek, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida " Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etiladi.

Nogironligi bolgan shaxslar barcha darajadagi ta'lim olish va o'z qobiliyatini qobiliyatini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun butun umir davomida ta'lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqlariga ega. Nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim professional ta'lim muassasalarida amalga

oshiriladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning maktabdan tashqari ta'lim bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, uylari klublari va markazlarida "Barkamol avlod" bolalar maktablarida, bolalar musiqa va sanat maktablarida, studiyalarda, axborot- kutubxona hamda sog'lomlashtrish

muassasalarida amalga oshiriladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning oliy ta'lim muassasalarida va tahskilotlarda amlaga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning oliy ta'limdan keyingi ta'lim oliy ta'lim va ilmiy tahskilotlarda olinishi mumkin. Statsionar davolash - profilaktikasi yoki reabilitatsiya muassasalarida davolash kursini o'tayotgan nogironligi bolgan bolalar uchun mazkur muassasalarida o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Profisional ta'lim olish uchun maxsus shart- sharoitlarga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turli tipdagi va xildagi ixtisoslashtirilgan profisional ta'lim muassasalarida tashkil etiladi. Ularda o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida davlat ta'lim standartlariga muvofiq amlaga oshiriladi.

Ta'lim inson taffakuri va dunyoqarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi . Ma ktabgacha ta'limdan boshlab bolalarda bag'rikenglik, mehr - oqibat, bir- biriga yordam qo'lini



cho'zish qadiryatlari singdirilsa, keying bosqichlarda nogironlikka nisbatan salbiy qarashlar asta- sekin bartaraf etiladi. Jamiyatda bazida nogironlik "zaiflik" "oqsash" yoki "to'liq hayot kechira olmaslik" sifatida noto'g'ri talqin qilinadi. Ta'lim orqali bunday qarashlar o'zgartiriladi, chunki o'quvchi va talablar darslarda, tarbiyaviy tadbirlarda hamda ijtimoiy loyihalarda nogirirlarning ham o'z salohiyatini namoyon eta olishga guvoh bo'ladilar. O'qtuvchilar va pedagoglar nogironlik masalalarini to'g'ri yoritishi, bolalarga tenglik

va hamjihatlaik ruhini singdirishi muhimdur. Shu bilan birga, ta'lim faqat maktab va universitet bilan cheklanmaydi- ommaviy axborot vositalari, onlayin platformalar va targ'ibot ishlarini ham keng jamoatchilikni ongli tarbiyalashda xizmat qiladi. Nogironlik mehnat qobiliyatini yoqotish darajasiga qarab 3 guruhga bo'linib, vaqtincha (6- 12 oy) yoki muddatsiz qilib tayinlanadi. 1-guruh nogironligiga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan va boshqaning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslar;

2- guruh nogironiga mehnat qobiliyatini butunlay yoqotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat'iy nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar; 3- guruh nogironligi mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi. Nogironlar davlat nafaqasi bilan ta'minlanadi, zarur bo'lganda davolanadi, ularga protazlar beriladi, ishga maxsus maktablarga joylashtrish uchun sharoit yaratadi.

Xulosa Ta'lim va xabardorlik dasturlari nogironlikka nisbatan ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishning eng samarali vositalaridan biridir. Ular jamiyatda bag'rikenglikni kuchaytiradi, nogironligi bo'lgan shaxslarning qo'llab- quvtalashga undaydi va ularning to'laqonli hayot kechirishi uchun sharoit yaratadi. Natijada, jamiyatda "Nogiron emas, inson" degan g'oya mustahkam qaror topadi. SHuningdek, xabardorlikni oshrish dasturlari orqali keng jamoatchlik nogironlikni kamstuvchi tushuncha sifatidaemas, balki insoniyatning tabiiy xilma -xiligi sifatida qabul qilishni o'rgatadi. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda faol ishtirok etishi uchun ijobiy sharoit yaratadi.

Adabiyotlar royxati:



1. “Maxsus pedagogika” S. Usmonova. T. Qosimova.
2. Z. -Ibodullayev Tibbiyot psixalogiyasi kitobi.
3. Kun.uz.
4. Bolalar psixalogiyasi va psixodiagnostikasi. M. X. Asranbayeva, D.D. Oribboyeva, D. D.Boymirzayeva.

